

TILGA EKOLOGIK YONDASHUV

Shahlo NARALIEVA

Filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori
O'zbekiston milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Ra'no Raupovna SAYFULLAYEVA

Professor
Filologiya fanlari doktori
O'zbekiston milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada til va muhit, til va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi yangi lingvistik yo'nalish ekologik lingvistika, uning shakllanish bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari hamda ilmiy yo'nalishlari xususida so'z boradi. Shuningdek, lingvoekologiya masalalari bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalar tahlilga tortiladi.

Tayanch so'zlar: ekologik lingvistika, til ekologiyasi, leksik eroziya, til muhiti, lingvoekologiya, lingvotsid, til allergiyasi.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ЯЗЫКУ

Шахло НАРАЛИЕВА

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Национальный университет Узбекистана
Ташкент, Узбекистан

Раъно Рауповна САЙФУЛЛАЕВА

профессор
Доктор филологических наук
Национальный университет Узбекистана
Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье рассматривается новое лингвистическое направление – экологическая лингвистика, изучающее взаимоотношения между языком и окружающей средой, языком и природой. Описываются этапы формирования этого направления, его особенности и научные аспекты. Также анализируются мнения, высказанные по вопросам лингвоэкологии.

Ключевые слова: экологическая лингвистика, экология языка, лексическая эрозия, языковая среда, лингвоэкология, лингвоцид, языковая аллергия.

Jamiyatdagi har bir inson uchun eng muhim sanalgan fazilatlardan biri muloqot etikasini yuqori darajada saqlab qolishdir (ayniqsa bu ommaviy muloqotga tegishli). Ana shu madaniy mezon har qanday buzilgan nutqni cheklashi

kerak, chunki ayrim hollarda ular ma'lum bir auditoriya uchun muhimdek tuyulishi mumkin bo'lsa-da, umumiy jihatdan ijtimoiy muhitga zarar yetkazadi.

Zamonaviy jamiyat bugun ekologik inqiroz ostonasida turibdi, bu esa atrof-muhitda sodir bo'layotgan chuqur va murakkab o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu o'zgarishlar ko'p omilli va tizimli xarakterga ega.

Jamiyatdagi til va lingvomadaniyatdagi bunday salbiy holatlarni ifodalash uchun ekologiya fanining terminologiyasi qo'llanila boshlandi, ekologik g'oyalar til sohasiga ko'chirildi.

Tilshunoslikning rivojlanish tarixida XIX–XX asr yangi davrni boshlab berdi deyish mumkin. Bu davrda struktural oqimlar bilan bir qatorda boshqacha qarashlar va ular asosidagi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Jumladan, eksperimental fonetika, lingvistik geografiya, neyrolingvistika kabi. Keyingi yillarda esa ikki fanning "chorrahasida" (kesishuvida) vujudga kelgan yangi sohalar rivojlanishni boshladi. Psixikolingvistika, etnolingvistika, paralingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika, semiotik lingvistika, transformatsivaviy lingvistika, matn lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, matematik lingvistika kabilar shular jumlasidandir. Bu sohalar so'zlovchining jamiyatdagi faoliyati bilan aloqador til xususiyatlarini o'rganadi. Tilshunoslik ilmida bunday alohida yo'nalishlarning paydo bo'lishi nafaqat unga yondosh soha uchun, balki tilshunoslikning o'zi uchun ham anchayin qulaylikni vujudga keltirdi deyish mumkin. Yangi davrda tilshunoslik boshqa sohalarga ko'makchi bo'lib qolishi kerak. Har bir soha bo'yicha lug'atchilik lingvistik asosda taraqqiy etishi lozim [11].

Ekolingvistika fan sifatida – til va muhit (atrof-muhit, ijtimoiy muhit, madaniy muhit) o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi yangi lingvistik yo'nalish sifatida kirib keldi. U XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshladi va XXI asrda mustaqil fan sohasi sifatida rivojlandi. Bu fan lingvistika, ekologiya, sotsiologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar bilan chambarchas bog'langan.

Ekologiya o'z ichiga 70 dan ortiq fundamental fanlarni qamrab olgan holda, jamiyat lingvomadaniyatidagi inqirozli hodisalarni aniqlash uchun ham ekologiya

fani terminologiyasidan foydalanilmoqda. Shu bilan birga, ekologik g'oyalar til sohasiga ham ekstrapolyasiya (voqealarni ilmiy bashorati) qilina boshlandi. B tilning ichki imkoniyatidan foydalanish, metaforik jarayonlar, tilda ishlatilayotgan belgi ichidagi semantik va pragmatik munosabatlarni asoslash, u yoki bu terminlar, terminologik birliklarning qo'llanishini kengaytirish bilan xarakterlanadi.

Ekolingvistika fanlararo ilmiy paradigmada quyidagilar bilan tavsiflanadi:

“Ma'lum termin va atamalarining qo'llanish sohalarining kengayishi yoki torayishi, ularning ichki shakli (etimologik izohi) asosida qo'llanilishi, metaforalashuvi, shuningdek, til birliklarining real ishlash jarayonida yuzaga keladigan semantik va pragmatik munosabatlardir” deya ta'kidlaydi V.F.Nechiporenko [5].

M.N. Epshteyn bu muammoga boshqa tomondan yondashadi. Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar tildagi “inqirozli” hodisalarga erkin munosabat bildiradilar: masalan, so'z o'zlashmalarining “sindromi”, tilning shevalar bilan bog'lanishi, ijtimoiy tafakkurning nomutanosib tus olishi natijasida yuzaga kelayotgan “lingvotsinizmlar”, shuningdek, nutqning jargonlashuvi va qo'pollashuvi, savodxonlik darajasining umumiy pasayishi va boshqalar haqida yozadilar [3]. U bunday tilning buzilish holatini jamiyatning inqirozi sifatida baholaydi.

Haqiqatan ham bugun tilimiz holati haqida ijobiy fikrlarni bildirish juda mushkul.

O'zbek tilining buyukligi va boyligi haqida balandparvoz maqtovlar bugungi kunda qolipga tushib qolgan iboralarga aylangan, bu iboralarni hatto o'tgan asrning ham emas, balki undan oldingi davrga oid deb atash mumkin. Ularning aksariyati haqiqiy til holatini aks ettirmaydi. Ayniqsa, o'zbek tilini boshqa xorijiy tillar bilan solishtirilganida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki XXI asr davomida boshqa tillar jadal rivojlangan bo'lsa-da, o'zbek tili bu taraqqiyotdan ortda qolgan.

Ammo bu borada V.S. Yelistratov boshqacha fikrni bildiradi va u: “Tilning ifloslanishi” borasida har qanday lingvist qanday javob bersa, men ham shunday deyman: tilni ifloslab bo'lmaydi, lekin nutqni ifloslash va past darajaga tushirish

mumkin, natijada esa bu insonning miyasi va qalbiga ta'sir etadi – ham o'ziga, ham uni tinglayotganlarga... Ya'ni bu holat tilning inqirozi emas, tilda so'zlayotgan insonlarning inqirozi", – deya yozadi [9].

Shunga qaramay, nutqiy muloqotning inqiroz holati va salbiy hodisalarning keng miqyosda tarqalganligini tan olar ekanmiz, til tizimi ham inqirozda ekani haqida haqli ravishda so'z yuritish mumkin.

Bugungi kunda o'zbek tili eng yaxshi davrini boshdan kechiryapti, deb ayta olamizmi? Yo'q. Chunki til bu – ijobiy dinamikani anglatuvchi hodisa, ammo XX asrda o'zbek tili ko'plab zamonaviy tillardan o'z rivojlanishida ortda qolgan.

V.I. Dal tomonidan to'plangan xalq maqollari orasida kommunikatsiya muammolari ham tilga olinadi:

“Ko'p gapiriladi, ammo oz narsa aytiladi”.

“Go'zal gapiradi, ammo tinglashga arzimaydi”.

“Aql chuvalanib ketgan, fikr kambag'al, eng yomoni esa – bekorchi g'iybatchi”.

Ko'rib turganimizdek, bu fikrlarning shakli arxaik, ammo mazmuni bugungi kun uchun nihoyatda dolzarb.

Tilga ekologik yondashuv esa bizni begona tillardan o'zlashmalar bilan bog'liq vaziyatga tanqidiy nazar bilan qarashga majbur qiladi. Bu holatning o'ziga xosligi shundaki, o'zlashmalar sonining ko'pligi nafaqat tilning o'ziga xosligini xavf ostiga qo'yadi, balki eng muhimi – shunday sharoitda milliy so'z yasash jarayonining yo'qligi yoki yetishmasligi bilan ham tavsiflanadi [2].

Tilning muhim xususiyati – uning dinamikligidir, ya'ni u doim o'zgarishda bo'ladi. Ammo turli davrlarda bu o'zgarishlar turli tezlikda ro'y beradi. So'nggi yigirma yil ichida tilimizda shunchalik ko'p o'zgarishlar sodir bo'ldiki, ilgari bunday o'zgarishlar yuzlab yillar davomida yuz berardi.

“Yuqori darajadagi o'zgaruvchanlik” sharoitida tilga ekologik yondashuv juda muhim ahamiyatga ega. Chunki u tilning tabiiy rivoji, barqarorligi va madaniy o'zligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Ekologiyaga tez-tez murojaat qilinishining sababi, saqlab qolish g'oyasining ustuvor bo'lishidadir, bu g'oya esa ekologiya fanining asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Ekologik lingvistika g'oyalari doirasida, muayyan kommunikativ makonda bu yakka inson ongida bo'lishi ham, jamiyat miqyosida ham raqobatlashayotgan tillarning omon qolishi yoki siqib chiqarilishi jarayonlari o'rganiladi.

Bugungi kunda *ekologik lingvistika fanining eng muhim vazifasi* – tillarning keskin qisqarishiga qarshi kurashishdir. Tillar yo'qolib borishi katta xavf tug'diradi, chunki ular bilan birga hali hanuz saqlanib qolayotgan dunyoni turlicha tasvirlash va anglash usullari ham yo'q bo'lishi mumkin.

Marr nazariyasining asosiy g'oyasi shundan iborat ediki: til rivojlanishining qonunlari jamiyat rivojlanishining qonunlari bilan yonma-yon davom etadi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy o'sish bilan birga til tuzilmasi ham chuqur o'zgarishga uchrashi tabiiy holat deb qaralgan. Bunda tilning o'ziga xos (ichki) omillari butunlay inkor etilgan [1].

Ekolingvistikaning fan sifatida shakllanishi 1980–1990-yillarga borib taqaladi. Shu davrda paydo bo'lgan yangi lingvistik paradigma bo'lib, uning asoschilaridan biri nemis olimi Alfred Fill hisoblanadi. Bu fan o'zining paydo bo'lishida biologik va gumanitar yo'nalishlarni uyg'unlashtiradi.

Shakllanish bosqichlari quyidagicha davrlashtiriladi(1.1-chizmaga qarang):

Birinchi bosqich (1980–1990-y.) – Biolingvistika va til ekologiyasiga oid fikrlar. Bu bosqichda tilni tirik organizmga qiyoslash asos qilinadi.

Ikkinchi bosqich (1990–2000-y.) – Til va atrof-muhit, til va jamiyat o'rtasidagi aloqalar asosida yondashuvlar shakllanadi.

Uchinchi bosqich (2000-yildan hozigacha) – Ekolingvistika fan sifatida shakllanib, tillarning barqaror rivojlanishi, til siyosati, madaniy muhit va til muhofazasi kabi mavzularni qamrab oladi.

Lingvistik ekologiya doirasida shakllangan bir nechta *ilmiy yo'nalishlar* (bo'limlar va kichik bo'limlar) mavjud. Bularga quyidagilar kiradi(1.1-chizmaga qarang):

Ekolingvistika ilmiy yo‘nalishlari



1.1-chizma. Zamonaviy ekolingvistika tadqiq yo‘nalishlari.

Emotiv lingvoekologiya (V.I. Shaxovskiy rahbarligida) – nutqdagi emotsional komponentlar va ularning ekologik muvozanatini o‘rganadi.

Tarjima ekologiyasi (E.M. Pylaeva, I.N. Poteryaxina) — tarjimada mazmunni asliga zarar yetkazmasdan uzatish, tarjima orqali tilga begona unsurlarni haddan ziyod kiritmaslik.

Translingval ekologiya – bir til vositalarining boshqa tilda qanday ishlatilishini, bunda til va madaniyatlararo aloqalarning ta’sirini o‘rganadi.

Ekologik stilistika va ekologik poetika – nutqning uslubiy va badiiy jihatlarini ekologik mezonlar asosida tahlil qiladi.

Bugungi kunda shakllangan qarashlarga ko‘ra, lingvistik ekologiya integratsion/hamkorlikdagi fan hisoblanadi, ya’ni u bir nechta fanlarning tushunchaviy apparatini o‘z ichiga oladi. Bu fanlar: sof lingvistika, ekologiya, valeologiya (sog‘liqni saqlash g‘oyalari), sotsiologiya, etika. Bu fanlarning kategoriyalari lingvistika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til va sog‘lom jamiyat o‘rtasidagi uzviy aloqani ifoda etadi.

Shu bilan birga, lingvoekologiya o‘zining terminologik apparat tizimini shakllantirib ulgurgan va zamonaviy til muhitidagi dolzarb muammolar doirasini aniq belgilagan. Eng asosiysi shundaki, lingvistik ekologiya tabiat va ma’naviyat o‘rtasidagi uzviy aloqani e’tirof etadi.

Lingvoekologiyaga oid turli yondashuvlar, turli talqinlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ularning barchasini quyidagi asosiy g'oya birlashtiradi: tilni asrash va uni jamiyat bilan uzluksiz bog'lash zaruriyati. Bu esa, o'z navbatida, tilda jamiyat hayoti qanday aks etishini va har bir taraqqiyot bosqichida qanday til kompetensiyasi shakllanishi kerakligini belgilaydi.

Jahon tilshunosligida lingvoekologiya masalalari bo'yicha dastlabki fikr-mulohazalar 1972-yilda E.I.Xaugen tomonidan e'lon qilingan bo'lib, 1990-yilda M.Xellideyning til ekologiyasi tadqiqiga bag'ishlanga asari chop etildi va mazkur tadqiqotlar lingvoekologiya fanining rivojiga turtki bo'ldi. Ma'lumki, "til ekologiyasi" atamasi birinchi bo'lib E.Xaugen tomonidan kiritilgan bo'lib, Xaugenning asosiy g'oyasi shundan iboratki, tillar ham xuddi hayvon va o'simlik turlari kabi muvozanat holatida bo'lishi, o'zaro raqobatlashishi, hatto bir-birining mavjudligiga bog'liq bo'lishi mumkin. Aynan E.I.Xaugen tomonidan ekolingvistika fanining obyekti – til va ekologiya sifatida aniqlab berilgan. U shunday yozadi: "Til ekologiyasini til va uning muhitidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ta'riflash mumkin, "til muhiti" deganda, tilni o'z kodlaridan biri sifatida ishlatuvchi jamiyat tushuniladi.

Til ekologiyasi qisman fiziologik tabiatga ega (ya'ni, inson ongida boshqa tillar bilan o'zaro ta'siri), qisman esa ijtimoiy xususiyatga ega (ya'ni, tilning uni ishlatuvchi jamiyat bilan bo'lgan munosabati, aloqa vositasi sifatida).

Til ekologiyasi – bu tilni o'rganuvchi, undan foydalanuvchi va uni boshqalarga uzatuvchi insonlarga bog'liqdir" [4].

U.Makkey, A.Fill, P.Finke L.J.Kalve, V.Trampe, I.Shtork, M.Dyoring, P.Myulxoysler kabi olimlar lingvoekologiyaning makrolingvoekologiya va mikrolingvoekologiya kabi yo'nalishlarini belgilab berdilar. Birinchi yo'nalishda glottonaziya, til genotsidi(tilni yo'q qilmoq), destruksiya(parchalanish), tillararo kelishmovchiliklar, til siyosati va tillarni rejalashtirish masalalari o'rganila boshlandi. Keyingi yo'nalishda esa til va nutq masalasi sotsiolingvistik, psixolingvistik, antropotsentrik aspektlarda tadqiq etildi.

O'zbek tilshunosligida lingvoekologiya doirasida til sofliqi, o'zbek tilida me'yori buzilishi, tildan o'rinli foydalanish, tilni saqlab qolish kabi masalalar monografik yo'nalishda tadqiq etilmagan. A.Hojiyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Y.Tojiev, E.Shodmonov, M.Mirtojiyev, B.Urinboyev, A.Rustamov, M.Rahmonov, S.Mo'minov, T.Qudratov, Sh.Iskandarova, N.Mahkamov, R.Rasulov, Q.Mo'ydinov, Sh.Safarov, B.Yo'ldoshev, A.Mamatovlar tomonidan o'zbek tili sofliqini saqlash tamoyillari, tilni buzuvchi unsurlar, tildagi ortiqchalik, purizm masalalari ma'lum ma'noda o'rganilgan. Faqat 2021-yilda Qo'ldoshev Nizomidin Ahmadalievich "Lingvoekologiya: o'zbek tilida til va nutq sofliqining lingvokulturologik tadqiqi" mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasini himoya qilgan. Ushbu tadqiqotda lingvoekologiya sohasidagi muammolar tilning buzilishi va yo'qolishining oldini olish, til birliklarini nutqda to'g'ri qo'llash yuzasidan yangi yondashuvlar asosida tadqiq etilgan [6].

Ekologiya va tilshunoslikning o'zaro munosabati doirasida ilk bor X.D.Paluanova hamda Z.A.Djurabaeva tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. X.D.Paluanova o'zbek, qoraqalpoq, ingliz va rus tillaridagi ekologiyaga oid terminlarni qiyosiy aspektda o'rgangan va ularning derivatsion-semantik xususiyatlarini ochib bergan. Z.A.Djurabaeva ishida ekologik terminlarning leksik-semantik guruhlari, paradigmatic munosabatlari va tuzilishiga ko'ra turlari aniqlanib, o'zbek ilmiy leksikologiyasi yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan. N.Z.Pazliddinova tadqiqotida o'zbek tili fitonimlari tizimida nomlar motivatsiyasiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, N.R.Umarova "tabiat" konsepti doirasida Navoiy asarlarida qo'llangan fitonim va zoonimlarni diaxron aspektida tadqiq etgan [6].

Bugungi kunda dunyo miqyosida oddiy xalq tushunishi qiyin bo'lgan o'zlashma so'zlar haddan ziyod ko'p ishlatilayotganligi ta'kidlanmoqda. Bu esa o'zaro muloqot jarayonida bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Natijada zamonaviy tilshunoslikda ushbu masalalarni o'rganadigan yangi yo'nalish sifatida lingvoekologiya vujudga keldi. Lingvistik ekologiya milliy tilning holati haqida

obyektiv ma'lumot olish zaruratiga javoban shakllangan fan sohasidir. Uning maqsadi asosiy tendentsiyalarni tahlil qilish, mumkin bo'lgan "kasalliklar" (ya'ni tilning buzilishlari) haqida oldindan xabar berish va tilni eng muhim muloqot vositasini salbiy ta'sirlardan himoya qilishdir. Agar til muhiti tegishli standartlarni belgilabgina qolmay, balki ma'lum bir shaxsiyat turini ham shakllantirsa, unda lingvistik ekologiyaning ijtimoiy ahamiyati yanada oshadi. Lingvistikada yangi yo'nalish ekolingvistikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ko'plab bo'limlari bilan birga, lingvistikaning faqat til tuzilmasi va uning taksonomiyalariga qaratilgan fan bo'lishidan chiqib, faoliyatga yo'naltirilgan, hatto ko'p fanlararo fan sifatida jamiyatshunoslik va til-madaniyat muammolarini hal eta oladigan soha ekanligini ko'rsatadi.

Lingvoekologiyaning yana bir turi translingval aspekti ajratib ko'rsatiladi, bunda bir til va madaniyatga tegishli vositalar, birliklar va realiyalar boshqa til va madaniyat vositalari yordamida qo'llaniladi.

Translingval – bu bir tilning elementlari (so'zlari, iboralari, uslubi) boshqa til muhitida qo'llanilishi yoki aralashishi holatini bildiruvchi atama. Bu so'z "trans" (o'sha joydan bu joyga) va "lingva" (til) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "tillararo" yoki "til chegarasidan o'tuvchi" degan ma'noni anglatadi. Bu hodisa bir madaniyat yoki tilga oid birliklarning boshqa til muhiti ichida ishlatilishi. Masalan: Uz. O'zbek tilida:

"Biz bugun brifing o'tkazamiz" (Brifing – inglizcha so'z).

"Ofisda deadline yaqinlashmoqda".

Bu yerda ingliz tilidagi so'zlar o'zbek matnida ishlatilgan translingval holat.

ru Rus tilida:

"У нас сегодня тимбилдинг" (team-building – inglizcha).

"Этот проект полностью аутсорсится" (outsourcing).

Reklamalarda:

"MegaSALE!", "Only today – shopping night!", "100% cashback!".

Bugun bu o'zlashma iboralar kundalik muloqotimizda juda ko'p ishlatiladi.

Translingval til holatlarining 2 asosiy ko'rinishi:

Til qabul qiluvchi (reseptor) – Begona soʻzlar kirib keladigan til.

Donor til – begona soʻzlar berayotgan til (koʻpincha ingliz tili).

Ijtimoiy va biologik jihatdan xavfli deb baholanuvchi salbiy nutqiy holatlar “lingvoekologik huquqbuzarliklar” deb ataladi. Bunday holatlarga koʻpincha asoslanmagan holda chet tilidagi unsurlardan foydalanish kiradi.

Ingliz, rus va turk tilidagi turli soʻzlarning kuchli va toʻsqinliksiz oqim tarzida kirib kelayotgani zamonaviy til jarayonlari borasida jiddiy tashvish uygʻotmoqda. Aynan lingvoekologiya bu begona soʻzlar hukmronligining buzuvchi taʼsiriga eʼtibor qaratadi.

V. Milovatskiy fikricha, lingvoekologiya – bu til yaxlitligi, uning xalq madaniyati bilan va yer yuzidagi umumiy semiosfera bilan bogʻliqligini oʻrganuvchi fan. Unga koʻra, bu fan soʻzning energiyasi, uning ijodiy kuchi, biologik muhit bilan bogʻliqligi, yaʼni tabiatning “tirik tili” bilan munosabatini ham oʻrganadi [12].

Oʻz navbatida, soʻz ekologiyasi bioekologiyaga yaqinlikni namoyon etadi, hatto u yerdan oʻzining atamalari uchun “tayyor shakllarni” oladi, masalan: “lingvotsid” (tilning yoʻq qilinishi), “leksik eroziya” (soʻz boyligining yemirilishi), “til allergiyasi” (tilga sezgirlik yoki begona unsurlarga nisbatan salbiy munosabat).

Lingvoekologiya ning eng yuqori maqsadi – til xavfsizligini taʼminlashdir. Til xavfsizligi deganda – murakkab tizim boʻlgan tilga ichki va tashqi tahdidlar taʼsir qila olmaydigan, ularning rivojlanish va faoliyatiga xalaqit bermaydigan holat tushuniladi.

Oʻzbek tilining xavfsizligiga tahdid solayotgan asosiy muammolar qatoriga quyidagilar kiradi:

ogʻzaki va yozma nutqda amerikanizmlarning haddan tashqari koʻpligi;

anglo-rus gibrid birliklar (yaʼni til “kentavrlari” deb ataladigan aralash iboralar);

semantik kalkalar (yaʼni soʻzlarning inglizcha maʼnosini bevosita tarjima qilib ishlatish) – bular reklamada, ergonomikada, kundalik va kasbiy muloqotda, ommaviy axborot vositalari matnlarida keng qoʻllaniladi;

Shuningdek, quyidagi xavfli tendensiyalar ham mavjud:

- nutqning kriminalizatsiyasi, ya'ni jinoyat dunyosiga xos jargonlarning keng tarqalishi;
- invektivalar (qo'pol, haqoratli so'zlar) bilan nutqning haddan tashqari to'yinishi;
- aholining umumiy savodxonlik va nutq madaniyati darajasining pasayishi;
- maktablarda o'zbek tili ta'limi sifatining pasayishi, lug'atlar bilan ishlamaslik;
- o'zbek tilidagi lug'aviy birliklarning yo'qolib borishi.

So'nggi o'n yilliklarda o'zbek tili lingvistikasida yuqorida sanab o'tilgan tahdidlarning har biri tobora kuchli ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Ayniqsa, substandart til hodisalari, ya'ni barcha turdagi jargonlar, slenglar va obsensiv (odatda haqoratli yoki odobsiz) leksika faol o'rganilmoqda. Bu mavzularga bag'ishlangan ko'plab ilmiy adabiyotlar, shu jumladan monografiyalar, ilmiy maqolalar mavjud.

Bu tadqiqotlar natijasida quyidagi fikr shakllandi:

Adabiy til va substandart (ya'ni normadan chekinuvchi til shakllari) bir-biriga ta'sir qiladi, ular bir-birini to'ldiradi, va substandart birliklar umumiy til yangiliklarining muhim manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Tabiat va jamiyatda ekologik muammolarning vujudga kelishi natijasida tabiatni va jamiyatni asrash, olamni qutqarish singari tushunchalar paydo bo'la boshladi. Ushbu tushunchalar tilshunoslik sohasiga ham kirib, lingvoekologiya yo'nalishining shakllanishiga turtki bo'ldi.

Rus tilshunosi G.Y.Solganikning fikricha, tildagi antropotsentrizm, muloqot jarayonida vulgar so'zlar, jargonlar va argolardan foydalanish me'yorlari, tilning axloqiy-madaniy omillarini tadqiq etish bilan sotsiolingvistikaning tarkibiy qismi bo'lgan lingvoekologiya ham shug'ullanishi lozim. Til va nutq sofliğini saqlash haqida gap ketganda, eng avvalo, hozirgi ba'zi yoshlar ko'p qo'llaydigan so'z va iboralar, ya'ni varvar so'zlar haqida fikr bildirish joiz [8].

Yana bir til tizimini buzuvchi omil yuqorida aytilganlar bilan chambarchas bog‘liq varvarizm va jargonlar natijasida adabiy tilning asl so‘zlari, ayniqsa, milliy qadriyat tushunchalarini ifodalovchi so‘zlar tildan siqib chiqarilmoqda. Bu so‘zlar lingvomadaniy nuqtayi nazardan juda muhim ahamiyatga ega. Natijada, bu so‘zlar: arxaizatsiyalanmoqda (ya’ni, eskirgan deb hisoblanmoqda); til chetiga – periferiyasiga chiqib qolmoqda; eng xavflisi – butunlay yo‘qolib ketish xavfi ostida qolmoqda. Hozirgi zamon uchun mazmunli va obrazli arxaik so‘zlarga murojaat qilish – tilni erkinlashtirish va standartdan chiqarishning samarali usullaridan biridir. Shu sababli, insonni umuminsoniy madaniy tajribaning saqlovchisi deb biladigan mualliflar aynan arxaik leksikaga ko‘proq murojaat qilishadi. Arxaizatsiya jarayonini tahlil qilish orqali biz qaysi tushunchalar til va madaniyatda ahamiyatini yo‘qotayotganini bilamiz va bu so‘zlarning ko‘pi milliy qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, aslida ular yo‘qolmasligi va eskirmasligi kerak. Ammo bugungi kunda bu leksik birliklar nafaol so‘z boyligiga, ya’ni kam ishlatiladigan, “potensial” so‘zlar qatlamiga o‘tmoqda,

Bunday arxaizmlar (ya’ni eskirgan so‘zlar) faqat eng bilimli til egalarining ongida tirik saqlanib qoladi. Agar jamiyatda bunday so‘zlarni biladigan va qadrlaydigan odamlar soni qisqarsa, bu so‘zlar faol lug‘at tarkibidan chiqib, nafaol so‘z boyligi (kam ishlatiladigan qatlam) tarkibiga o‘tadi. Biroq, zamonaviy so‘z ustalari (yozuvchilar, publitsistlar, tilshunoslar) ijodi bilan bu so‘zlar yana inson ongining “lisoniy manzarasiga” qaytarilishi mumkin, ya’ni ular yana til hayotiga jalb qilinishi ehtimoldan xoli emas.

Globalashuv jarayonlari tobora kengayib, chuqurlashib borayotgan bugungi kunda asrlar osha boqiy yashab kelayotgan ko‘plab ezgu qadriyatlarimiz qatorida ona tilimizning sofligini, boy imkoniyatlarini saqlash, ushbu bebaho ma’naviy xazinamizni asl holicha asrash va kelajak avlodlarga bus-butun yetkazish tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Afsuski, joy nomlari, reklama va e’lonlar, bino va inshootlar peshtoqidagi lavhalarda ona tiliga bee’tiborlikka yo‘l qo‘yilayotgani tilimiz jonkuyarlarini ranjitmoqda. Bu g‘alizliklar, joy nomlaridagi

tushunarsiz (agnonim) holatlar tilning amaliy ahamiyatini, nufuzini pasaytirayotgani shubhasiz.

«Agnonim» atamasi yunon tilidan olingan bo‘lib, “bilinmagan, tushunarsiz, noma’lum” degan ma’noni anglatadi. Demak, muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun o‘sha tildagi noma’lum, notanish tushunarsiz bo‘lgan so‘zlar agnonim nomi ostida umumlashtiriladi. Agnonimlar tilshunoslikning (lingvotsentrik) emas, balki olamning lisoniy manzarasi yoki tilni o‘z egasidan ayro holda o‘rganishning antropotsentrik – barcha hodisa va munosabatlarni inson va uning manfaatlari uchun ahamiyati nuqtayi nazaridan talqin qiladigan dunyoqarash va ilmiy yondashish) hodisasi hisoblanadi. Tildan foydalanuvchi ayrim jamiyat a’zolari layoqati bilan bog‘liq hodisa sifatida qabul qilish lozim.

Agnonimlar – bu so‘zlarning bir turi bo‘lib, ularning ma’nosi eskirib, so‘zlashuvda, yozuvda kamdan-kam ishlatiladigan, ko‘pincha tushunarsiz yoki unutilib borayotgan so‘zlardir. Ular nutqda aniqlikni pasaytiradi, tushunishni qiyinlashtiradi, shuning uchun tilshunoslar ularni salbiy til hodisasi sifatida ko‘radi. Misol uchun, eski, kam ishlatiladigan, hozirda unutilgan yoki faqat ba’zi ilmiy yoki adabiy matnlarda uchraydigan so‘zlar agnonimlarga kiradi. Ular eskirib ketib, tilning faol so‘z boyligidan chiqib, “passiv” yoki “yashirin” so‘zlar qatoriga o‘tadi.

Masalan, tilshunos V.I.Chernishev shunday yozadi: “Tushunarsiz so‘zlardan foydalanish – bu tilning yorqin va ifodali leksik to‘qimasidagi dog‘lardek yomon ko‘rinadi. Ular matnni buzadi, fikrlashni qiyinlashtiradi, tinglovchi yoki o‘quvchini noto‘g‘ri g‘oyalar va xulosalarga olib keladi”[10]. Shu sababli, til egalari ko‘z o‘ngida muhim so‘zlar eskirib, yo‘qolib borayotganini ko‘rayotgan paytda, jamiyatda tabiiy ravishda “so‘z boyligini asrash” g‘oyasi shakllana boshlaydi.

Har bir til sohibi til me’yorlariga to‘g‘ri amal qilishi va buning uchun nutq qoidalarini o‘zlashtirib olishi juda zarur. Zero, “har bir tilning betakror so‘zlari, atamalari shu tilni yaratgan xalqning hayot tarzini, tarixini, turmush sharoitlarini, psixologiyasini ifoda etish ehtiyojidan tug‘iladi” [7]. Til doimiy rivojlanishda bo‘lib, albatta, bu rivojlanish inson omili bilan bog‘liq. Tilning rivojlanishiga

(boyishiga) shevalardan, o'zga tillardan so'z olish, yangi so'zlarni yasash orqali ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ayni paytda, bunday rivojlanish jarayoni tilga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Tarixdan ma'lumki, dunyoda qanchadan- qancha tillar paydo bo'lib, qanchadan-qancha tillar o'lik tilga aylandi. Bunga sabab esa tilning me'yoriy qoidalariga amal qilmaslik, til ekologiyasiga e'tiborsizlikdir.

O'zbek tiliga oid darslik va qo'llanmalarda, ilmiy maqola va monografiyalarda ayni bir til hodisasi uchun bir necha so'z, aksincha, bir-biridan farqli hodisalar uchun bir so'z termin sifatida ishlatilayotgan holatlar ham uchraydi. Bu, albatta, ijobiy holat hisoblanmaydi. Har bir hodisa uchun uning mohiyatini to'g'ri aks ettiradigan bitta termin qo'llanishi zarur. Darhaqiqat, tilni o'rganuvchi soha sifatida tilshunoslikning o'zida bunday muammolarning, ya'ni lingvistik terminlardan ba'zilarining hodisa mohiyatiga to'la mos kelmasligi, ayrimlarining esa bir hodisa uchun birdan ortiqligi e'tiborli holat hisoblanadi. Bu holatni bartaraf etish hozirgi kunda tilshunoslikdagi yangi yo'nalish sifatida rivojlanayotgan til ekologiyasining asosiy vazifalaridan biridir.

O'zbek tilshunosligida lingvoekologiya va til ekologiyasi doirasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish, har qanday yozma materiallarning davlat tilida berilishini ta'minlash milliy til sofligini saqlash, muloqot jarayonida undan to'g'ri foydalanish, tilni qo'llashda yo'l qo'yilgan tartibsizliklarning oldini olish lingvoekologiya oldida turgan vazifalardan sanaladi. Tilshunoslikda lingvoekologiya yo'nalishining vujudga kelishi o'zbek tilshunosligida ham ekologik terminlar sistemasi va semantikasi borasida aniq holatlarni belgilash, ekolingvial birliklar va hodisalar doirasini qat'iy chegaralashni hamda izohlashni taqozo etadi. Lingvoekologiya til egalari o'rtasidagi sog'lom muloqot, nutq sofligi, tilning tabiiy va asl holatini asrash masalalariga e'tibor qaratadi.

Til ekologiyasi g'oyalariga muvofiq ravishda lingvoekologiya leksik eroziya, til muhiti, til muhitining ifloslanishi, til kasalliklari, tilni muhofaza qilish kabi tushunchalar bilan ish ko'radi. Bu borada tilning sog'lom turmush tarzi, uning harakat faolligi tushunchalari tildagi shamollash, yuqumli kasalliklar hamda til lingvonekrozi singari muammolarning yechimi sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvoekologiya lingvistik xilma-xillikni huquqiy himoya qilish, til hodisalarining ijtimoiy vazifalarini kengaytirish, ona tili va, umuman, tilning jamiyatdagi nufuzini oshirish yuzasidan aniq chora- tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Til o'zida milliylik va tarixiylik tamoyilini mujassam etadi, tabiat hamda jamiyatdagi barcha narsa-hodisalar tilda zarur nom bilan gavdalanadi, biroq ijtimoiy hayotning barcha sohalariga og'ishmay kirib kelayotgan yangi tushunchalar va ularning atamalarini o'zga tildan o'zlashtirishda ma'lum me'yor hamda qoidalarga rioya qilmaslik natijasida tilda son-sanoqsiz tushunarsiz so'zlar uyumi paydo bo'ladi. Tilda bunday salbiy holatning oldini olish uchun yangi tushunchalarni o'z til imkoniyatlari doirasida ifoda etishga mutaxassislar boshqa sof tillarning amaliy tajribalaridan foydalanish hisobiga erishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алпатов В.М. 150 языков и политика. 1917-2000. Социолингвистические проблемы СССР и постсоветского пространства. – Москва: КРАФТ + ИВ РАН, 2000. – 223 с.
2. Брусенская Л.А. В чем состоит экологический подход к языку? // Из-35. вестия Южного федерального университета. Филологические нау-ки, 2012. – № 3. – С. 149-156.
3. Эпштейн М.Н. Русский язык в свете творческой филологии разыска-245. ния // Знамя, 2006. – № 1. – С. 196-207
4. Haugen E. The ecology of language: Essays by E. Haugen / Originally 259. published in W. Bright (Ed.). – Stanford, CA: Stanford University Press, 1966. – P. 159-190
5. Нечипоренко В.Ф. Лингвофилософские основы эколингвистики. – Калуга: Калужская облорганизация союза журналистов России, 1998. - 210 с.
6. Qodirova X. M.O'zbek tilining lingvoekologik tadqiqi muammolari. UrDU, 2022.
https://www.researchgate.net/publication/360931359_Ozbek_tilining_lingvoekologik_tadqiqi_muammolari

7. Qodirov P. Til va el: ilmiy badia. – Toshkent, 2005.
8. Солганик Г. Я. [О структуре речи \(категории производителя и субъекта речи\)](#) // Экология языка и коммуникативная практика. — 2014. — № 1.
9. Елистратов В.С. Арго и культура. Словарь русского арго: мат-лы 76. 1980-1990 гг. – Москва: Русские словари, 2000. – С. 574-692
10. Чернышев В.И. Разыскания и замечания о некоторых русских выражениях // Чернышев В.И. Избранные труды. – Москва: Наука, 1970. – Т. 1. – С. 301-34
11. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/baxtiyor-mengliyev-til-millat-timsoli-xalq-g-ururi>
12. <https://litportal.ru/avtory/valeriy-milovatskiy/?ysclid=mcs4evxary522273334>